



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№2(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 230 sahifa,
2-fevral, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Kasbiy mahorat va tajribalarni rivojlantirishning mazmuni, shakl va usullari	22
Yo'ldasheva Feruzaxon Shavkatbekovna	
O'zbek tili darslarida 5E modelini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish: Chimboy tumani 36-sonli ixtisoslashtirilgan maktab misolida	26
Kojamuratova Ulbosin Punkitbaevna	
Shaxs ijtimoiy faolligi: tushuncha va tahlil.....	29
Baxriyeva Nargiza Axmadovna	
Fiziognomika va psixologik yondashuvlar asosida portret qalamtasviri ta'limini takomillashtirish.....	33
Babadjanov Axmadjan Xudayberdiyevich	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish	37
Nusharov Bobir Bolbekovich	
Личностные характеристики как ассимиляция системы отношений младших школьников и предмет воспитательного воздействия учителя	41
Олимова Азиза Кахрамоновна	
“Vitagen ta'lim texnologiyalari” asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda perseptiv qobiliyatni rivojlantirishga o'rgatishning didaktik imkoniyatlari	47
Tursunboyeva Kamola Iloxomjon qizi	
Ekologik ta'lim va tarbiya asosida talabalarda ekoturistik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari.....	50
Kamolov Baxtiyor Xasanboyevich	
Individual ta'lim trayektoriyasi: maktabgacha yoshdagi bolalarda ekspressiv nutq buzilishlarining o'ziga xos xususiyatlari	54
Fayziyeva Nozima Oybek qizi	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish samaradorligi	59
Ibragimova Nozima Ulug'bekovna, Pardayeva Hosila Qudratulla qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachining kreativ roli	64
Botirova Lobar Kamolovna	
O'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.....	69
Kaipova Tazagul, Kaipova Elmira	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy kasb-hunarlariga qiziqtirishda integrativ usullardan foydalanish	73
Ergasheva Nigora Erkinovna	
Proposals for the Development of Education in Teaching Musical-Historical and Theoretical Subjects	76
Sobirova Gulkhayo Aktamjonovna	
Raqamli ta'lim sharoitida talabalarda mediakompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	81
Rustemov Abseit Trijan o'g'li	
Hamkorlik ko'nikmalarini takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mazmuni	85
Baxramova O'ramol Uralovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda nazariy asoslanish mohiyati.....	88
Boxodirova Muxlisa Xoljigitovna	
Zoologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarining ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlari	92
Dushekeeva Nasiba Rustembaevna, Arepbaev Islambek Muratbaevich	
Ingliz tilini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning roli	96
Ergasheva Mehriyona	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining tasviriy ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	100
Jummayeva Sayyora Shokir qizi	



The Role of Digital Technologies and Virtual Reality in Modern English Teaching Methodologies	104
<i>Seilkhanova Rita Nurniyazovna, Kalbaeva Mexriban Elbrus qizi</i>	
Sog'lom separatsiya orqali yoshlar sog'lig'ini mustahkamlash: tibbiy-psixologik yondashuvning empirik tahlili	109
<i>Mavlyanova Surayo Sultanaliyevna</i>	
Badiiy-tarixiy meros asosida pedagog shaxsini tarbiyalash: nazariya va amaliyot uyg'unligi	112
<i>Qodirova Mavluda Maxodir qizi</i>	
Gamified Programming Platforms: Analysis and Recommendations	116
<i>Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida giperaktiv bolalar bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari	123
<i>Raimqulova Sojida Abdusaid qizi</i>	
Qandli diabet bilan og'rikan bemorlarga pedagogik yordam ko'rsatish tizimi.....	126
<i>Shermatova Yakut Sabirovna</i>	
O'smirlar o'rtasida kiberbulling	129
<i>Tashbekova Aziza Mirsuxbatovna</i>	
Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun tyutorlik yordamini tashkil etish	132
<i>Tolipova Pokiza Xasan qizi, Isamuxamedova Dildora Raxmatilayevna</i>	
Zamonaviy maktablarda xavfsizlik madaniyatining roli.....	135
<i>Turdiyeva Zilola Jalilovna</i>	
Global akademik reyting va raqobat muhitida xalqaro olimpiadalarning o'rni	138
<i>Xalikova Umida Mirovna</i>	
Tarbiyachining bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayonidagi o'rni	143
<i>Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Rahimova Umida Abdurasul qizi</i>	
Biologiya darslarida TIMSS topshiriqlarini integratsiyalash.....	148
<i>Zayniyev Suxrobjon Islombek o'g'li, Komiljonova Muslima Shuxrat qizi</i>	
О трансверсальных компетенции воспитателя дошкольного образования.....	153
<i>Садыкова Шоиста Акбаровна, Назарматова Дилшода Умаралиевна</i>	
Talaba-yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari	156
<i>Kushakova Gulnora Egamkulovna</i>	
Yosh oilalarda ajralishlarni bartaraf etishning pedagogik mexanizmlarini aksiologik yondashuv asosida takomillashtirish	160
<i>Normurodova Gulnora Ikromovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari	164
<i>Mamadaliyeva Dildora Alisher qizi</i>	
Psixologik zo'ravonlikning o'smirlarda destruktiv xulq shakllanishiga ta'siri	168
<i>Jurakulova Dildora Ziyadullayevna</i>	
Maktab maslahatchilarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari	172
<i>Kazakova Saxiba Abdurayimovna</i>	
Kichik maktab yoshi o'quvchilarida ongli intizomni tarbiyalashning samarali usullari.....	178
<i>Ziyayev Adxamjon</i>	
Lingvokulturologiyada konsept tushunchasining nazariy talqini	182
<i>Jo'rayeva Nozima Nozim qizi</i>	
Sport takomillashuvi bosqichida voleybolchilarning sakrash qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi	185
<i>Shaimardanov Sherbek Abdurashid o'g'li</i>	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda nutq rivojlanishining pedagogik-psixologik xususiyatlari	189
<i>Teshaboyeva Feruza Raximovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasiga oilaning katta avlodi va ularning ta'siri.....	192
<i>Ashirova Sojida Baxromovna</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini differensial yondashuv asosida o'qitishning tarixiy pedagogik ildizlari	196
<i>Bekmuratova Shoxida Ne'matjonovna</i>	

Talabalarda yozuv kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	200
Jabborova Salomat Abdijalilovna	
Integrativ o'qitish asosida bo'lajak logopedlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni.....	204
Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna	
6-7 yoshli bolalarda mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanish	208
Kasimova Dilrabo Baxadirovna, Omonxonova Muzayamxon Sarvar qizi	
Bo'lajak surdopedagoglarni koxlear implantli bolalar bilan ishlashga tayyorlashda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasi	213
Raximova Xurshidaxon Sadikovna	
Yevropa muhandislik ta'limi tajribasi asosida texnika yo'nalishlari talabalarida texnik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	217
Xalikova Nargiza Abduvaliyevna	
Tilning obrazli kuchi: perifrastalar turlari va xususiyatlari	221
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashning pedagogik va psixologik xususiyatlari.....	224
Zayirkulova Nozima Ilyas qizi	



BO'LAJAK SURDOPEDAGOGLARNI KOXLEAR IMPLANTLI BOLALAR BILAN ISHLASHGA TAYYORLASHDA AMALIY MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI

Raximova Xurshidaxon Sadikovna

Qo'qon davlat universiteti "Maxsus pedagogika" kafedrası
 v.b. professori, PhD

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak surdopedagoglarni koxlear implantli bolalar bilan ishlashga tayyorlash jarayonida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasining mazmuni va didaktik asoslari yoritiladi. Amaliy tayyorlashni kuzatuv, model-lashtirish, boshqariladigan amaliyot va refleksiv tahlil bosqichlari asosida qurish talabalarda kasbiy fikrlashni shakllan-tirishi asoslanadi. Rivojlantiruvchi, individuallashtirilgan va integrativ yondashuvga asoslangan mashg'ulotlar pedagogik qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishi ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: koxlear implant, surdopedagog tayyorlash, amaliy mashg'ulot, kasbiy kompetensiya, refleksiv o'qitish, pe-dagogik modellashtirish, inklyuziv ta'lim.

Abstract: The article reveals the content and didactic foundations of organizing practical training in preparing future teachers of the deaf to work with children after cochlear implantation. It is substantiated that structuring practical training through observation, modeling, guided practice and reflective analysis contributes to the development of professional thinking. The developmental, individualized and integrative orientation of training enhances the ability to make pedago-gical decisions.

Key words: cochlear implant, teacher of the deaf training, practical training, professional competence, reflective learning, pedagogical modeling, inclusive education.

Аннотация: В статье раскрывается содержание и дидактические основы технологии организации практических занятий при подготовке будущих сурдопедогогов к работе с детьми после кохлеарной имплантации. Обосновано, что построение практической подготовки на этапах наблюдения, моделирования, управляемой практики и реф-лексивного анализа способствует формированию профессионального мышления студентов. Показано, что раз-вивающая, индивидуализированная и интегративная направленность занятий формирует способность принимать педагогические решения.

Ключевые слова: кохлеарная имплантация, подготовка сурдопедагога, практические занятия, профессио-нальная компетентность, рефлексивное обучение, педагогическое моделирование, инклюзивное образование.

KIRISH

So'nggi yillarda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni reabilitatsiya qilish tizimida koxlear implantatsiya texnologiyasining keng joriy etilishi maxsus pedagogika oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Implantatsiya natijasida bolaning tovushni qabul qilish imkoniyati paydo bo'lsa-da, ushbu fiziologik imkoniyatning nutqiy va kommunikativ faoliyatga aylanishi bevosita pedagogik ta'sir sifati bilan belgilanadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, implantatsiyadan keyingi rivojlanish samaradorligi ko'proq mutaxassisning tayyorgarlik darajasiga bog'liq bo'lib, ayniqsa uning real pedagogik vaziyatda to'g'ri metodni tanlay olish qobiliyati hal qiluvchi omil hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim tizimida surdopedagoglarni tayyorlash jarayoni an'anaviy ravishda nazariy bilimlarni o'zlashti-rishga yo'naltirilgan. Talabalar eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar rivojlanish qonuniyatlari, nutqni shakllantirish bosqichlari va korreksion metodlar haqida yetarli ma'lumotga ega bo'ladilar. Biroq koxlear implantli bolalar

bilan ishlash jarayonida pedagog ko'pincha oldindan o'rganilgan sxemalarga to'liq mos kelmaydigan murakkab vaziyatlarga duch keladi:

- bola tovushni eshitadi, lekin farqlamaydi;
- so'zni takrorlaydi, ammo ma'nosini anglamaydi;
- mashg'ulotda faol, kundalik hayotda esa passiv bo'lib qoladi.


Bunday holatlarda tayyor metodni qo'llash emas, vaziyatni tahlil qilish va mos pedagogik strategiyani tanlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur holat oliy ta'limdagi tayyorlash tizimida amaliy komponentning yetarli darajada shakllanmaganligini ko'rsatadi. Nazariy bilim amaliy faoliyatga aylantirilmaguncha kasbiy kompetensiya barqaror shakllanmaydi. Shu sababli bo'lajak surdopedagoglarni tayyorlash jarayonida amaliy mashg'ulotlarni qayta tashkil etish, ularni real professional faoliyatga yaqinlashtirish va pedagogik qaror qabul qilish tajribasini shakllantirish zarurati yuzaga keladi. Muammo faqat metodlarni o'rgatishda emas, balki talabalarda ularni mos vaziyatda tanlash va qo'llash ko'nikmasini rivojlantirishdadir. Bu esa amaliy mashg'ulotlarni an'anaviy reproduktiv shakldan faoliyatga yo'naltirilgan, modellashtirilgan va refleksiv o'qitish texnologiyasi asosida tashkil etishni talab qiladi. Mazkur maqolada bo'lajak surdopedagoglarni koxlear implantli bolalar bilan ishlashga tayyorlashda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasining mazmuni va pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi.^[4]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bo'lajak surdopedagoglarni koxlear implantli bolalar bilan ishlashga tayyorlash jarayonida amaliy mashg'ulotlar oddiy ko'nikma hosil qilish vositasi emas, balki kasbiy fikrlashni shakllantiruvchi muhit sifatida tashkil etilishi lozim. Shu sababli ularni an'anaviy "ko'rsatish–takrorlash" tamoyiliga asoslangan shakldan faoliyatga yo'naltirilgan bosqichli tizim asosida qurish maqsadga muvofiqdir. Bunday tizim talabaning nazariy bilimni real pedagogik vaziyat bilan bog'lashiga va mustaqil pedagogik qaror qabul qilish tajribasini hosil qilishiga xizmat qiladi.^[4]

Amaliy mashg'ulotlar mazmuni ketma-ket o'zaro bog'langan to'rt bosqichda tashkil etiladi:



1-bosqich. Kuzatuv-analitik tayyorgarlik. Dastlab talaba tayyor metodni qo'llashdan oldin bolaning faoliyatini kuzatishni o'rganadi. U mashg'ulot jarayonini tashqi natija orqali emas, ichki rivojlanish jarayoni orqali tahlil qiladi: bola tovushga qanday reaksiya bildirmoqda, u eshitayotganini angelayaptimi yoki faqat sezayaptimi, nutqiy topshiriqni bajarayotganda qaysi bosqichda qiyinchilik yuzaga kelmoqda. Mazkur bosqichning vazifasi – talabaning diqqatini xatoni tuzatishga emas, uning sababini aniqlashga yo'naltirishdir. Natijada pedagogik faoliyat ongli kuzatuvga asoslanadi.

2-bosqich. Modellashtirilgan faoliyat. Keyingi bosqichda real mashg'ulotga yaqin sun'iy pedagogik vaziyatlar yaratiladi. Talaba turli holatlar bilan ishlaydi: bola tovushni farqlamaydi, so'zni mexanik takrorlaydi, ota-ona ortiqcha yordam beradi yoki bola kommunikativ tashabbus ko'rsatmaydi. Bu yerda maqsad tayyor algoritmni qo'llash emas, balki vaziyatga mos pedagogik yechim tanlashdir. Modellashtirish talabaning kasbiy refleksini rivojlantirib, nazariy bilimni faoliyatga aylantiradi.

3-bosqich. Boshqariladigan amaliyot. Talaba mutaxassis rahbarligida haqiqiy mashg'ulotni olib boradi. U topshiriqlarni rejalashtiradi, bolaning reaksiyasini kuzatadi va zarur paytda metodni o'zgartiradi. Rahbar esa uning qarorlarini tahlil qilishga yordam beradi. Ushbu bosqichda talaba pedagogik harakatlar ketma-ketligini o'zlashtiribgina qolmay, ularning mantiqiy asosini tushuna boshlaydi.



4-bosqich. Mustaqil reflektiv faoliyat. So'nggi bosqichda talaba mashg'ulotni mustaqil tashkil etadi va uni tahlil qiladi. Videokuzatuv, yozma tahlil va muhokama orqali o'z faoliyatidagi kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi. Shu orqali pedagogik qarorlar ongli tanlovga aylanadi, ya'ni talaba nima qilganini emas, nima sababdan qilganini anglay boshlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur bosqichlar ketma-ketligi amaliy mashg'ulotni oddiy tajriba to'plash jarayonidan kasbiy tafakkurni shakllantiruvchi tizimga aylantiradi. Natijada talaba metodlarni yodlab qolmaydi, balki ularni pedagogik vaziyatga mos ravishda tanlay oladigan mutaxassis sifatida shakllanadi.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasining didaktik tamoyillari

Koxlear implantli bolalar bilan ishlashga tayyorlash jarayonida amaliy mashg'ulotlar samaradorligi ularning qanday o'tkazilishidan ko'ra, qaysi didaktik asosga qurilganiga ko'proq bog'liq. Chunki mazkur faoliyatda pedagog tayyor algoritmi qo'llamaydi, balki doimiy o'zgarib turuvchi rivojlanish vaziyatida qaror qabul qiladi. Shu sababli amaliy tayyorlash jarayoni an'anaviy reproduktiv o'qitishdan farqli ravishda faoliyatga yo'naltirilgan didaktik tamoyillar asosida tashkil etilishi lozim.^[3]

- 1. Rivojlantiruvchi yo'naltirilganlik tamoyili.** Mashg'ulotning asosiy maqsadi topshiriqni bajarish emas, bolaning idrok jarayonini rivojlantirishdir. Talaba har bir mashqni natijaga emas, rivojlanish mexanizmiga bog'lab tahlil qilishga o'rgatiladi. Masalan, tovushni takrorlash mashqi talaffuzni tekshirish uchun emas, eshitish differensiasiyasini shakllantirish uchun qo'llanadi. Bu yondashuv pedagogni mashqlar sonini ko'paytirishdan saqlab, ularning mazmunini aniqlashtirishga yo'naltiradi.
- 2. Individuallashtirish tamoyili.** Koxlear implantli bolalarning eshitish tajribasi bir xil emas, shuning uchun standart mashg'ulot samarali bo'la olmaydi. Talaba har bir bolaning reaksiyasi, rivojlanish sur'ati va kommunikativ ehtiyojlariga qarab topshiriqlarni moslashtirishni o'rganadi. Shu orqali amaliy tayyorlash umumiy metodni o'zlashtirishdan individual strategiya tuzish bosqichiga o'tadi.
- 3. Vaziyatlilik tamoyili.** Pedagogik faoliyat real sharoitda oldindan to'liq rejalashtirib bo'lmaydi. Shuning uchun mashg'ulotlar turli pedagogik vaziyatlarni modellashtirish asosida tashkil etiladi. Talaba metodni eslab qolishdan ko'ra, uni mos vaziyatda tanlashni o'rganadi. Bu esa professional moslashuvning muhim sharti hisoblanadi.
- 4. Integrativlik tamoyili.** Koxlear implantli bolalar bilan ishlash tibbiy va pedagogik jarayonlarning uzviy bog'liqligiga asoslanadi. Amaliy mashg'ulotlar audiologik ma'lumot, logopedik tahlil va psixologik kuzatuvni birgalikda hisobga olish orqali tashkil etiladi. Natijada talaba bolaning rivojlanishini alohida belgilar orqali emas, yaxlit tizim sifatida tushunishga o'rganadi.
- 5. Refleksivlik tamoyili.** Amaliy faoliyatdan keyin uning tahlili majburiy bosqich hisoblanadi. Talaba o'z harakatlarini baholaydi, qaysi qaror samarali bo'lganini aniqlaydi va keyingi mashg'ulotni rejalashtiradi. Shu orqali tajriba ongli bilimga aylanadi va kasbiy fikrlash shakllanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur didaktik tamoyillar asosida tashkil etilgan amaliy mashg'ulotlar talabaning bilimini ko'nikmaga, ko'nikmani esa mustaqil pedagogik faoliyatga aylantiradi. Natijada u tayyor metod ijrochisi emas, balki rivojlanish jarayonini boshqara oladigan mutaxassis sifatida shakllanadi.

Koxlear implantli bolalar bilan ishlashga tayyorlash jarayonini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, surdopedagogning kasbiy tayyorgarligi faqat nazariy bilimlar hajmi bilan belgilanmaydi. Mazkur faoliyat o'zgaruvchan pedagogik vaziyatlarda tez va asosli qaror qabul qilishni talab etadi. Shuning uchun oliy ta'limda tashkil etiladigan amaliy mashg'ulotlar oddiy ko'nikma hosil qilish vositasi emas, balki kasbiy tafakkurni shakllantirish mexanizmi sifatida qaralishi lozim.

Bosqichli tashkil etilgan amaliy tayyorlash tizimi talabaning faoliyatini kuzatuvdan tahlilga, tahlildan ongli harakatga olib keladi. Avval u bolaning rivojlanish jarayonini kuzatadi, keyin pedagogik vaziyatni tushuntiradi, so'ng mos metodni tanlaydi va oxirida o'z faoliyatini baholaydi. Shu izchillik pedagogik qarorlarning tasodifiy emas, mantiqan asoslangan bo'lishini ta'minlaydi. Natijada talaba metodni qo'llovchi emas, balki rivojlanish jarayonini boshqaruvchi mutaxassis sifatida shakllanadi.

Tadqiqot natijalari amaliy mashg'ulotlarni rivojlantiruvchi, vaziyatli, integrativ va refleksiv tamoyillar asosida tashkil etish bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy moslashuvini tezlashtirishini ko'rsatadi. Bunday tayyorlash sharoitida talabalar real ish faoliyatiga o'tishda qiyinchilikka kamroq duch keladi, mashg'ulotlarni individual rejalashtiradi va ota-onalar bilan hamkorlikni samarali yo'lga qo'yadi.

Amaliy tavsiyalar

1. Amaliy mashg'ulotlarni kuzatuv, modellashtirish, boshqariladigan amaliyot va refleksiya bosqichlari asosida tashkil etish maqsadga muvofiq.
2. Har bir mashg'ulotdan keyin majburiy pedagogik tahlil (og'zaki yoki yozma) o'tkazish talab etiladi.
3. O'quv jarayoniga real klinik holatlarga yaqin vaziyatlarni modellashtirish elementlarini kiritish zarur.
4. Audiolog, logoped va psixolog bilan hamkorlikdagi integratsiyalashgan mashg'ulotlar tashkil etilishi kerak.
5. Talabalarning mashg'ulotlarini videokuzatuv orqali tahlil qilish refleksiv ko'nikmalarni shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Shunday qilib, amaliy mashg'ulotlarni texnologik jihatdan qayta tashkil etish surdopedagoglarni tayyorlash sifatini oshiradi va koxlear implantli bolalar bilan ishlashda pedagogik yordamning samaradorligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. X.S.Raximova, Koхlear implantli bolalar bilan logopedik ish (o'quv qo'llanma). F.: 2021. – 210 b
2. Леонгард Э.И. Формирование слухоречевого восприятия у детей с нарушением слуха. – Москва: Просвещение, 2017. – 240 с.
3. Кукушкина О.И. Педагогическая помощь детям после кохлеарной имплантации. – Москва: ВЛАДОС, 2018. – 208 с.
4. Королёва И.В. Реабилитация детей с кохлеарными имплантами. – Санкт-Петербург: Речь, 2019. – 192 с.
5. Archbold S., Mayer C. Deaf Education: International Perspectives. – Oxford: Oxford University Press, 2018. – 295 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.